# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL**

**IYUN/6-SON, II-QISM**



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra’no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

METAVERS TURIZMI: VIRTUAL DUNYODAGI SAYOHATNING IQTISODIY, HUQUQIY VA IJTIMOIY NATIJALARI ....12
**Urazov Jamshidjon Sa'dullayevich**
**Eshimova Sevinch Baxtiyor qizi**

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUN'IY INTELLEKT VA PLATFORMA EKOTIZIMLARINING KORXONA INNOVATSIYALARIDAGI O'RNI ....16
**Izzatullayeva Madinabonu Yolqin qizi**

METHODOLOGY FOR ASSESSING THE ECONOMIC DAMAGE OF ECOLOGICAL HAZARDS IN URBAN AREAS: CONCEPTUAL SHORTCOMINGS OF NON-MARKET VALUATION METHODS AND THE INTEGRAL DAMAGE FUNCTION APPROACH ....20
**Abbos Saydullaev**
**Iqboloy Choriyorova**

O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOT IMKONIYATLARI ....31
**Ibragimova Rayxon Tojibayevna**

OZIQ-OVQAT SANOATIDA "ЗAYLANMA IQTISODIYOT (CIRCULAR ECONOMY)" MODELINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ....36
**Elnoraxon Muminova Abdukarimovna**
**Sarvinoz Mamatojiyeva Dilshodjon qizi**

TRANSPORT KORIDORLARINI BOSHQARISHDA LOGISTIKA MENEJMENTINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI ....42
**Umarova Dilfuza Raxmatulla qizi**

ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ И ПЕРСПЕКТИВ ЦИФРОВИЗАЦИИ MICE-СЕКТОРА В УЗБЕКИСТАНЕ ....47
**Нарзуллаева Фариза Акмалевна**

ECONOMETRIC MODELING OF THE DYNAMICS OF RETAIL TRADE TURNOVER UNDER THE INFLUENCE OF REAL HOUSEHOLD INCOME USING A LOGARITHMIC FUNCTION ....53
**Gaybullayev Sarvar Uktam ugli**

MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING MAZMUN-MOHIYATI VA NAZARIY ASOSLARI ....59
**Mizamova Umida Jamoliddin qizi**

SPORT TAKOMILLASHUVI BOSQICHIDAGI FUTBOLCHILARNING MUSOBAQA FAOLIYATIDA INNOVATSION VOSITALARNING O'RNI ....64
**Mamatraimov Anvar Chorshanbiyavich**

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI VIZUAL MATERIALLAR VOSITASIDA O'RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH ....72
**Olimova Shahlo Bahodir qizi**
**Inomova Mahliyo Yusuf qizi**

TIJORAT BANKLARIDA ICHKI VA TASHQI AUDITNING NAZARIY ASOSLARI ....76
**Toshimov Azizbek Hakimovich**
**Quvondiqov Shohboz Normamat o'g'li**

XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONLARINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI ....81
**Musurmonqulov Muhammad Ural o'g'li**

TEMIR YO'L ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY MEXANIZMI ....86
**Baymatov Atxam Axmadaliyevich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MENEJMENT NAZARIYASINING SHAKLLANISHI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI ........ 92
**Saidova Xilolaxon Rashidjon qizi**
OPPORTUNITIES FOR USING MARKETING STRATEGIES TO ENSURE THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF HOTEL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN ........ 97
**Sardor Kuvandikov**
ЭФФЕКТИВНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ПРОГРАММ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ........ 106
**Абдуллаева Зульфия Иззатовна**
NAMANGAN VILOYATINING HUDUDIYIQTISODIY TUZILMASI VA SHAHARLAR TIZIMINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI ........ 113
**Ahmadjanov Ilyosbek Ilhomjon o'g'li**
JISMONIY SHAXSLAR DAROMADLARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMI VA XALQARO TAJRIBALAR QIYOSIY TAHLILI ........ 117
**G'afforov Kamronbek**
"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AJNING SINGULYAR VA BARQARORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI ........ 123
**Bobojonova Zarnigor Shokirovna**
MINTAQAVIY IQTISODIY JARAYONLARNI BAHOLASHDA DSGE MODELINING QASHQADARYO SHAROITIGA MOSLASHTIRILGAN TAHLILIY KOMPONENTLARI ........ 132
**Muxitdinov Xudayar Suyunovich**
**Quvatova Gulzoda Faxriddin qizi**
O'ZBEKISTONDA TIBBIY TURIZM VA TIBBIY XIZMATLAR TIZIMINING MAZMUNI ........ 137
**Ergasheva Iroda Ibrohim qizi**
FOYDA SOLIG'INING BANKLAR MOLIYAVIY HOLATIGA TA'SIRINI BAHOLASH ........ 141
**Maxmudov Omon To'xtayevich**
RAQAMLI INFRATUZILMA TUSHUNCHASI, TARKIBI VA IQTISODIY MAZMUNI ........ 147
**Pardayev Orifjon Charshamiyevich**
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI ........ 152
**Omonova Zarina Xudoymurodovna**
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOBINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI (Shartli "suv ta'minot servis" AJ misolida) ........ 160
**Doniyorova M.**
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI RIVOJLANISHINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ........ 164
**Komilova Shaxnoza Komiljon qizi**
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA XODIMNING QIYMAT YARATISH DARAJASINI BAHOLASHNING INTEGRALLASHGAN MODELI (EVCI) ........ 169
**Xaydarova Malika Shokirjon qizi**
ГОСУДАРСТВЕННАЯ ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ПОЛИТИКА УЗБЕКИСТАНА И МЕХАНИЗМ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ ........ 174
**Нодира Илхамовна Саидахмедова**
**Жамолиддин Ярашевич Нуриллаев**
THE RELATIONSHIP BETWEEN FRUGALITY AND INNOVATION: A THEORETICAL AND METHODOLOGICAL PERSPECTIVES ........ 181
**Allaberganov Zakir Gaibovich**
**Alimova Guzal Abdukhakimovna**
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELI ........ 188
**Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich**

AHOLINI IJTIMOIY HIMOYALASH TIZIMINI BOSHQARISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI ........ 196
**Xamroyev Anvar Ashurovich**
QISHLOQ XOʻJALIGI MAHSULOTLARINI QAYTI ISHLAYDIGAN BIZNES SUBYEKTLARIDA MEHNAT UNUMDORLIGINI OSHIRISH ........ 202
**Ismaylov Kuatbay Sarsenbayevich**
IQTISODIYOT TARMOQLARINI QOʻLLAB-QUVVATLASHDA FISKAL INSTRUMENTLARNING NAZARIY-IQTISODIY ASOSLARI ........ 206
**Mardonov Kamoliddin Karamiddinovich**
QISHLOQ XOʻJALIGI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI BOSHQARISH ........ 212
**Hamroyeva Feruza Azizjon qizi**
BARQAROR RIVOJLANISHNI TAʼMINLASHDA TARMOQLARARO INTEGRATSIYANING INSTITUTSIONAL MODELINI TAKOMILLASHTIRISH YOʻNALISHLARI ........ 217
**Muftaydinov Mansur Kiyomidinovich**
RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING IQTISODIY MAZMUNI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI........ 226
**Sirojev Nurbek Gʻulomiddin oʻgʻli**
EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA SOGʻLOM TURMUSH TARZINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI........ 231
**Nurmatov Samandar Gʻayratovich**
TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TOʻGʻRIDAN-TOʻGʻRI XORIJIY INVESTITSIYALAR (FDI)NING ROLI VA UNI RAGʻBATLANTIRISH OMILLARI ........ 238
**Bau Long**
ПРОМЫШЛЕННЫЙ КОМПЛЕКС РЕГИОНА КАК ОБЪЕКТ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ........ 244
**Ахрарова Шодияхон Жаъфархон кизи**
PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING KOMPLEKS USLUBIYATI ........ 247
**Djurayev Davlat Djonibekovich**
TIJORAT BANKLARIDA KREDITLASH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI ........ 250
**Raxmanova Laylo Baxodirovna**
SOLIQ QARZDORLIGINI HISOBLASH VA UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SUBYEKTLAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TAʼMINLASH ........ 256
**Payziyev Hamid Orziqulovich**
PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 260
**A.A. Ismailov**
OʻZBEKISTONDA ELEKTRON TOʻLOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI VA ULARNING ISTEʼMOLCHILAR XULQ-ATVORIGA TAʼSIRI ........ 266
**Elmurodov Shohzod Shavkatovich**
DAVLATNING BUDJET SIYOSATI — MILLIY IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHNING ASOSIY INSTRUMENTI SIFATIDA........ 272
**A.A. Ismailov**
ETNOGRAFIK RESURSLARDAN FOYDALANISHNING STRATEGIK BOSHQARUV TAMOYILLARI ASOSIDA TURIZM SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 278
**Axmedov Ikrom Akramovich**
OʻZBEKISTON TASHKILOTLARIDA UCHRAYDIGAN BOSHQARUV MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI ........ 285
**Abiyev Jahongir Neʼmatovich**
XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION FAOLIYATNING NAZARIY MODELI VA ILMIY YONDASHUVLARI........ 290
**Abikayumov Bekzod Turdiniyozovich**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O‘ZBEKISTONDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQAMLI SALOHIYATINI BAHOLASH: RSI INDEKSI ASOSIDA ILMIY TAHLIL........ 294
**Odinayev Nuriddin Ramozon o‘g‘li**
O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY QIMMATLI QOG‘OZLARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI........ 300
**Hakimov Ikrom Izzatillo o‘g‘li**
QISHLOQ XO‘JALIGI KORXONALARIDA QO‘SHILGAN QIYMAT SOLIG‘I BO‘YICHA STRATEGIK ISLOHOTLARNING AHAMIYATI........ 305
**Amanov Akram Mirzayevich**
FOND BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI INVESTITSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI........ 310
**Vasiyev Alisher Samiyevich**

# FOND BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI INVESTITSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

**Vasiyev Alisher Samiyevich**
**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**
**"Bank ishi" kafedrasi dotsenti, PhD**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishning amaliy holati tahlil qilingan va ularning ijobiy tomonlarini mamlakatimiz amaliyotida qo'llash yuzasidan amaliy taklif va tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** fond bozori, investitsion faoliyat, mamlakat iqtisodiyoti, moliyalashtirish, xorijiy davlatlar tajribalari, iqtisodiy samaradorlik.

**Аннотация.** В данной статье проанализировано современное состояние финансирования инвестиционной деятельности через фондовый рынок в Республике Узбекистан. Также представлены практические предложения и рекомендации по применению положительного зарубежного опыта в национальной практике.

**Ключевые слова:** фондовый рынок, инвестиционная деятельность, экономика страны, финансирование, опыт зарубежных государств, экономическая эффективность.

**Abstract.** This article analyzes the current state of financing investment activities through the stock market in the Republic of Uzbekistan. It also presents practical proposals and recommendations for applying the positive aspects of international experience in national practice.

**Keywords:** stock market, investment activity, national economy, financing, foreign countries' experience, economic efficiency.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotida yuz bergan global iqtisodiy o'zgarishlar va ularning turli sohalarga ta'siri fond bozorining iqtisodiy rivojlanishdagi muhim o'rnini yanada yaqqol namoyon etdi. Darvoqe, fond bozori taraqqiy etgan va jadal rivojlanayotgan davlatlarda "kapital akkumulyatori" vazifasini bajarib, aholi va korxonalarning vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larini iqtisodiyotga jalb etish orqali harakatsiz aktivlarni investitsiyalarga aylantirmoqda. Mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan baholanib, ularning samaradorligi fond bozori faoliyati ko'rsatkichlarida ham o'z aksini topmoqda. Fond bozori mamlakatdagi mulkiy munosabatlarning rivojlanish darajasini aks ettirish bilan bir qatorda, biznes muhiti hamda aholi va korxonalarning moliyaviy faolligini ham ifodalaydi.

Xalqaro amaliyotda fond bozorlarida keng qo'llanilayotgan innovatsion bozor instrumentlarini (venchur kapitali, ipoteka sertifikatlari, IPO, fond bozori orqali birlashish va qo'shib olish (M&A) bitimlari, startaplarni sekyuritizatsiyalash) milliy fond bozoriga joriy qilish orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirishni takomillashtirishning afzalliklari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda fond birjalariga asosan moliyaviy barqarorligi yuqori bo'lgan emitentlarning aksiyalari kiritiladi. Masalan, AQSHdagi mashhur Nyu-York fond birjasida ikki mingdan ortiq kompaniya aksiyalari muomalada bo'ladi. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar emissiyasini ro'yxatdan o'tkazgan tashkilotlar soni mazkur mamlakatda yuz minglabni tashkil etadi. Qimmatli qog'ozlarning katta qismi birjadan tashqari bozorlarda xarid qilinadi va sotiladi. Bunday bozorlar turli moliyaviy imkoniyatlarga ega emitentlar uchun qo'shimcha moliyalashtirish manbai sifatida xizmat qiladi. Shu bois, bir emitentning qimmatli qog'ozlari ayni bir vaqtning o'zida ham fond birjasida, ham birjadan tashqari bozorlarda muomalada bo'lishi mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta siyosatini liberallashtirish boʻyicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PF-5177-son Farmoni[1], shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining kapital bozorini rivojlantirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish hamda toʻgʻridan toʻgʻri xorijiy investitsiyalarni keng jalb etishga qaratilgan meʼyoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fond bozori tahlili, shubhasiz, uning mazmun-mohiyati hamda mamlakat iqtisodiyotida bajaradigan funksiyalari haqidagi ilmiy tasavvurlarga tayanishi lozim. Taʼkidlash joizki, xalqaro amaliyotda "fond bozori" tushunchasiga nisbatan berilgan ilmiy taʼriflar turlicha talqin qilinib, ular fond bozorining turli jihatlarini yoritadi. Shu sababli fond va qimmatli qogʻozlar bozorlari masalasida iqtisodchi olimlar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar ilgari surilgan boʻlib, ularning nazariy qarashlarini oʻrganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlardan Raymond Barre fond bozoriga quyidagicha taʼrif beradi: "Fond bozori texnik institut sifatida boʻsh pul mablagʻlarini qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi, mulk huquqiga baho beradi, risklarni qayta taqsimlaydi hamda bozor ishtirokchilari oʻrtasida axborot almashinuvini taʼminlaydi. Shu bois fond bozori deganda jamgʻarmalarni yigʻuvchi va bir joyga jamlovchi uzoq muddatli boʻsh kapitallar bozori tushuniladi. Ushbu mablagʻlar uzoq muddatli investitsiya talab qiluvchi tarmoqlarga yoʻnaltiriladi".

Xususan, zamonaviy va taniqli iqtisodchi olimlardan biri Gregory Mankiw bu borada shunday taʼrif beradi: "Koʻp hollarda fond bozori jamgʻarma qilish, shuningdek, aksiya va obligatsiyalar bozori orqali mablagʻlarni qarzdorlarga yoʻnaltirish imkonini beruvchi moliyaviy muassasalar yigʻindisi sifatida tavsiflanadi".

Xorijlik iqtisodchi olimlar K.R. Makkonnell va S.L. Bryu fond bozoriga quyidagicha taʼrif beradilar: "Fond bozori kapital mablagʻlarini taklif etuvchilar va xaridorlarni bir joyga jamlovchi institutdir". Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismi sifatida fond bozori iqtisodiy adabiyotlarda boʻsh pul mablagʻlarining samarali harakatini taʼminlovchi mexanizm sifatida qaraladi. U qarz oluvchilarga kapital mablagʻlarni jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

Iqtisodiy lugʻatlar va ilmiy adabiyotlarda koʻpincha "qimmatli qogʻozlar bozori" hamda "fond bozori" tushunchalari qoʻllaniladi. Ayrim iqtisodchilar fond bozorini qimmatli qogʻozlarning birja bozori sifatida talqin qiladilar. Xususan, xorijlik iqtisodchi olim E.F. Jukov: "Hozirgi vaqtda iqtisodiyotni moliyalashtirishda uch turdagi qimmatli qogʻozlar bozori, yaʼni birjadan tashqari bozor, fond (birja) bozori va koʻcha bozori faoliyat yuritadi", deb taʼkidlaydi.

Boshqa bir guruh iqtisodchilar, xususan, L.M. Mirkin qimmatli qogʻozlar bozori va fond bozori tushunchalarini mazmunan yaqin tushunchalar sifatida baholaydi. Haqiqatan ham, birjadan tashqari, birja va koʻcha bozorlarida "fond qimmatliklari" deb ataluvchi moliyaviy instrumentlarning oldi-sotdisi amalga oshirilishi ushbu tushunchalarning oʻzaro bogʻliqligini koʻrsatadi.

Investitsion faoliyatni fond bozori orqali moliyalashtirishning nazariy asoslarini J. Sigel oʻz asarlarida keng yoritgan. Uning fikricha, "har qanday korxonaning aksiyalariga qilingan investitsiyalar xalqaro bozor talablari nuqtayi nazaridan ham baholanishi zarur. Agar kompaniya aksiyalari investorlarga jozibador boʻlsa, uning rivojlanish istiqbollari ham yuqori baholanadi". Ushbu yondashuv aksiyalarni baholashda ularning haqiqiy sifati va investitsion jozibadorligiga alohida eʼtibor qaratish lozimligini koʻrsatadi.

G.I. Prosvetovning fikricha, "investitsiyalarni jalb etishda uning maqsadi aniq belgilanishi va natijada iqtisodiy samara hamda daromad olinishi muhim ahamiyatga ega". Olim korxona va tashkilotlarning aksiyalari orqali investitsiyalarni jalb etishda ularning moliyaviy hisobotlari va buxgalteriya balansini chuqur tahlil qilish zarurligini taʼkidlaydi.

A.I. Zimin oʻz ilmiy tadqiqotlarida qimmatli qogʻozlar orqali investitsiyalarni jalb etishda fundamental va texnik tahlil usullaridan kompleks foydalanish zarurligini qayd etadi. Uning taʼkidlashicha, mazkur tahlil usullari mamlakat iqtisodiyoti hamda fond bozori holatini chuqur baholash, investitsion qarorlar samaradorligini oshirish va bozor istiqbollarini aniqlash imkonini beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, guruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli tahlil, empirik tahlil natijalarini tizimlashtirish hamda ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Maqolada qiyosiy taqqoslash usuli asosida jahon amaliyotida qoʻllanilayotgan ilgʻor yondashuvlarning tashkiliy-huquqiy asoslari mamlakatimizdagi amaldagi tizim bilan taqqoslanib, tegishli xulosalar shakllantirildi.

1 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.09.2017 yildagi PF-5177-son https://www.lex.uz/uz/docs/-3326421

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda o'zbek emitentlari to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi va axborot ta'minotini yanada takomillashtirish milliy fond bozori kapitalizatsiyasi darajasini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Ushbu masalani hal etishning muhim yo'nalishlaridan biri qimmatli qog'ozlar emissiya prospektlarida keltiriladigan ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlashdan iboratdir.

Shu sababli respublikamizda fond bozorini muvofiqlashtiruvchi organlarning asosiy vazifalaridan biri investorlarni emitentlarning moliyaviy faoliyati to'g'risidagi tezkor va ishonchli ma'lumotlar bilan muntazam ta'minlab borish hisoblanadi. Fond bozori rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, emitentlar har chorakda emissiya prospektiga yaqin bo'lgan moliyaviy hisobotlarni taqdim etish orqali bozor shaffofligini ta'minlaydilar.

Respublikamizda bozor shaffofligini ta'minlash maqsadida emitentlardan kundalik va oylik hisobotlar talab qilinib, ularni ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Biroq, hisobotlarni yanada tizimlashtirish, ularning ishonchliligi uchun mas'uliyatni kuchaytirish hamda aholi va potensial investorlar uchun tushunarli bo'lgan soddalashtirilgan axborot tizimini yaratish bozor samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ma'lumotlarni nafaqat gazetalarda, balki zamonaviy ommaviy axborot vositalari va elektron platformalarda ham keng yoritish maqsadga muvofiqdir.

1. Institutsional investorlar faoliyatini yanada rivojlantirish zarurati.

Xalqaro tajribadan ma'lumki, pensiya jamg'armalari, investitsiya fondlari va xususiy sug'urta kompaniyalari kabi institutsional investorlarning fond bozoridagi faol ishtiroki bozor rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu bois, respublikamizda ham ushbu investorlar faoliyatini kengaytirish va ularning fond bozoridagi ishtirokini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Fond bozorida moliyaviy instrumentlar diversifikatsiyasini kengaytirish zarurati.
3. Uzoq muddatli va barqaror daromad keltiruvchi moliyaviy instrumentlarni amaliyotga keng joriy etish zarurati.

Mazkur yo'nalishlarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar kollektiv investorlarning investitsion faolligini oshirish, bozor likvidligini kuchaytirish va fond bozori rivojlanishini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, fond bozori orqali investitsion faoliyatni moliyalashtirish amaliyotini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish lozim:

1. Milliy qimmatli qog'ozlar bozorining iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirish va uning "iqtisodiyot barometri" sifatidagi funksiyalarini kengaytirish. Hozirgi vaqtda qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalar hajmining YaIMdagi ulushi kelgusida yanada oshirish imkoniyatlariga ega.
2. Institutsional investorlar, jumladan, pensiya fondlari va sug'urta kompaniyalarining fond bozoridagi ishtirokini kengaytirish hamda ular uchun samarali faoliyat mexanizmlarini shakllantirish.
3. Fond bozorida muomalaga chiqarilayotgan aksiyalar tarkibini yanada diversifikatsiya qilish va xususiy sektor vakillarining ishtirokini kengaytirish orqali xorijiy investorlar uchun yanada jozibador investitsiya muhitini yaratish.

Mazkur yo'nalishlarni rivojlantirish YADTK faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, uyushmagan bozor segmentlarini YADTK tizimiga integratsiya qilish yoki listingga kiritilmagan korxonalar uchun alohida "D" toifasini joriy etish bozor infratuzilmasini yanada rivojlantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, listing talablarini takomillashtirish va bozor ishtirokchilari uchun qulay shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, aniqlangan imkoniyatlardan samarali foydalanish va fond bozori faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida tadqiqot ishida YADTK faoliyatini tashkil etishning takomillashtirilgan tizimi taklif etilgan (1-rasm).

Bugungi kunda milliy emitentlar to'g'risidagi ma'lumotlarning ochiqligi va axborot ta'minotini yanada takomillashtirish milliy fond bozori kapitalizatsiyasi darajasini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu vazifani amalga oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri emissiya prospektida qimmatli qog'ozlarga oid ma'lumotlarning to'liqligi va ishonchliligini ta'minlashdan iborat.

Shuningdek, qimmatli qog'ozlarning hayotiy sikli quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

– emissiyaga tayyorgarlik;
– emissiya risolasini davlat ro'yxatidan o'tkazish, chiqarish va joylashtirish;
– bozor muomalasi;
– muomaladan chiqarish (so'ndirish).




**1-rasm. "Toshkent" Respublika fond birjasida savdo o'tkazishning amaldagi va taklif etilayotgan takomillashtirilgan tizimlari[2]**

Mazkur bosqichlarni tahlil qilish emissiyaga tayyorgarlik jarayonini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Bozorni rivojlantirishga ijobiy ta'sir etuvchi muhim omillardan biri korxonalarning qimmatli qog'ozlarni chiqarish (IPO) va sotish jarayonlarini yanada samarali tashkil etish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, emissiya bosqichlarini soddalashtirish va jarayonlarni optimallashtirish orqali fond bozori faolligini oshirish mumkin (2-rasm).




**2-rasm. Korxonalarning qimmatli qog'ozlarni chiqarishdagi emissiya jarayoni[3]**

2 "Toshkent" fond birjasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
3 Muallif ishlanmalari asosida tayyorlandi.

Korxonalarning qimmatli qog‘ozlarni chiqarishdagi emissiya jarayoni bosqichlarini soddalashtirish natijasida aksiyadorlik jamiyatlarida aksiyalarni emissiya qilish tartibi va bosqichlarini yanada takomillashtirish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, emissiya jarayonida ortiqcha xarajatlarni qisqartirish, hujjatlar aylanishini optimallashtirish hamda jarayon samaradorligini oshirishga erishiladi. Natijada aksiyadorlik jamiyatlari qimmatli qog‘ozlarining emissiya muddati qisqarib, ularning fond bozoridagi faolligi ortadi.

Qimmatli qog‘ozlarni xalqaro fond birjalarida joylashtirish orqali xorijiy investitsiyalarni respublikamiz iqtisodiyotiga keng jalb etish imkoniyatlari mavjud. Bunda mahalliy kompaniyalar qimmatli qog‘ozlarining xalqaro fond bozorlari listingiga kiritilishini rag‘batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, fond bozori instrumentlarini sotib olishni xohlovchi investorlar uchun qimmatli qog‘ozlarni sotish va xarid qilish tartiblari hamda bosqichlarini soddalashtirish bozor jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi (3-rasm).




**3-rasm. Qimmatli qog‘ozlarni sotish va sotib olish bosqichlari**[4]

Yuqoridagi rasmdan ko‘rinib turibdiki, investor va emitentlar qimmatli qog‘ozlarni sotish hamda sotib olish jarayonida bir-biri bilan uzviy bog‘langan 10 ta asosiy bosqichdan o‘tadilar. Xususan, fond bozori orqali qimmatli qog‘ozlarni sotib olish uchun investorlar brokerlik tashkiloti, hisob-kliring palatasi, bank hamda depozitariy tizimi bilan hamkorlik qilib, tegishli hisobvaraqlarni ochishlari talab etiladi. Mazkur bosqichlar investitsiya operatsiyalarining xavfsizligi, shaffofligi va ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston uchun iqtisodiyotni modernizatsiyalash, sanoatni rivojlantirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va texnik jihatdan yangilash, shuningdek, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan davlat makroiqtisodiy siyosati nuqtayi nazaridan jahon qimmatli qog‘ozlar bozoriga integratsiyalashuv hamda mamlakat fond bozori rolini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, milliy qimmatli qog‘ozlar bozorlarining o‘zaro integratsiyalashuvi va rivojlanish tendensiyalari jahon moliya bozorlarining tobora uyg‘unlashib borayotganini

4 Muallif ishlanmalari asosida tayyorlandi.

ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy jahon qimmatli qog‘ozlar bozori arxitekturasining shakllanib borayotganidan hamda moliyaviy globallashuvning muhim yo‘nalishlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan, kelgusida O‘zbekiston fond bozorining jahon qimmatli qog‘ozlar bozori bilan integratsiyalashuv darajasi yanada oshib borishi, xalqaro investorlar ishtiroki kengayishi va milliy iqtisodiyotga investitsiyalar oqimi ko‘payishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jahon fond bozorlari federatsiyasining yillik byulleteni (WFE FY 2022 Market Highlights) ma’lumotlari.
2. Alyoxin B.I. Rynok tsennykh bumag (vvedeniye v fondovyye operatsii). – M.: Finansy i statistika, 1991. – 230 s.
3. Sharp U., Aleksander G., Beyli J. Investitsii: per. s angl. – M.: INFRA-M, 1999. – XII, 1025 s.
4. Navoy A.V. Strukturnyy analiz mezhdunarodnogo dvizheniya kapitala // Dengi i kredit. – M., 2007. – № 1. – S. 44.
5. Sautkina L.S. Novyye tendentsii v mekhanizme finansirovaniya investitsionnogo protsessa // Kontentus. – 2015. – № 5 (34). – S. 1–7.
6. Dorina E.B. Ot gipotezy effektivnosti fondovogo rynka k teorii povedencheskikh finansov // Belorusskiy ekonomicheskiy zhurnal. – 2013. – № 4. – S. 118–125.
7. Mahmudov N.M., Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish: o‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2010.
8. G‘ozibekov D.G‘. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. – Toshkent: Moliya, 2003.
9. Yo‘ldashev R.Z. Investitsionnoye obespecheniye privatizirovannykh predpriyatiy v Uzbekistane: upravlencheskiy aspekt: monografiya. – T.: Iqtisodiyot, 2009.
10. Smit A., Rikardo D., Keyns J., Fridmen M. va boshqalar. Klassika ekonomicheskoy mysli. – M.: Eksmo-Press, 1995. – 896 s.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 6/2**



© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz